**Do‘stlik tuman axborot- kutubxona markazi**
**axborot bibliografiya xizmati**

# Kutubxonachining shaxsiy Portfoliosi

# USLUBIY TAVSIYANOMA

***DO`STLIK SH.***

***Tuzuvchi:* *Axborot bibliografiya xizmat rahbari M.A.Raximova***

Kutubxona sohasida ishlayotgan mutaxssislarga bu ma`lumotlar qiziq va sizlar uchun foydali hamda keraklidir.Bugungi kunda kun sayin rivojlanib borayotgan kutubxonachilik sohasida ham xodimlari uchun kundan –kun yangi talablar qo`ymoqda.Soha vakillarini malakasini oshirish va o`zlari ustida ko`proq ishlashlari uchun qo`yilayotgan talablar zamonaviy va haqqoniyligi ijodiy o`sishga yondashilganligi bilan ajralib turadi.

Turli sohalar bor,turlicha kasblar ham hozirgi kunda shaxsiy portfolio tuzish kun sayin ommalashib bormoqda.Bugungi kun kutubxonachisining ham o`z sohasidan kelib chiqib shaxsiy portfoliosi yaratilyapti.Portfolio so`zi g`ayri oddiy lekin hammamiz bu so`zni eshitganmiz.Portfolio nima ekanligini quyidagi ma`lumotlar orqali bilib olishingiz mumkin.

## PORTFOLIO NIMA?

Bu an`ana qayerdan paydo bo’ldi? Hayotiy zaruratmi? “Portfolio” tushunchasi XV-XVI asrlarda G’arbiy Yevropadan kirib kelgan bo’lib, uyg’onish davrida arxitektorlar o’z buyurtmachilariga qurilish loyihalarini tayyor va homaki variantlarini "portfolio" deb nomlangan alohida papkada taqdim etishgan. Ushbu papkada taqdim etilgan xujjatlar talabgorda qurilish loyihasining kasbiy sifatlari haqida taassurot hosil qilgan. Hozirgi vaqtda esa biznes olamida portfolio firmaning yutuqlarini ko’rsatish, fotosuratchi va fotomodellar sohasida esa – suratlar albomi sifatida ishlatiladi. Portfolioni ta`lim sohasida qo’llash g’oyasi, 80-yillarning o’rtalarida AQShda paydo bo’ldi. AQSH va Kanadadan so’ng, portfolio g’oyasi Yevropa va Yaponiyada ommalashdi, XXI asrning boshlarida esa bu g’oya Rossiyada keng tarqaldi va hozirgi kunda bu g’oya O’zbekistonda ham keng yoyilmoqda.

Portfolioning asosiy mohiyati- mutaxassis nimalarga qodir bo`lsa, shularni xammasini ko`rsatish.Bu ma`lum davr oralig`ida kutubxonachining yakka tartibda erishgan yutuqlarini qaydlash, to`plab borish,baho berish usuli. Shunday qilib, “PORTFOLIO” bu erishilgan yutuqlar jamg`armasidir. Kutubxonachi portfoliosi “Kutubxonachining kasbiy faoliyatini ”ochib beradi.portfolio tuzishning aynan bir qolipga solingan holati yo`q.U sohasiga va kasbiga qarab turlicha bo`lishi

mumkin.Masalan : Kutubxonachining portfoliosi quyidagilarni o`z ichiga olishi mumkin.

**Ma`lumotlar berilishi kerak:**

**MA`LUMOTNOMA**

**Raximova Munira Alimovna**

2019- yil 15- oktyabrdan
**Sh.Rashidov nomidagi Jizzax viloyati axborot- kutubxona markazi tasarrufidagi Do`stlik tumani axborot-kutubxona markazida biblografiya xizmati xizmat raxbari**

**Tug`ilgan yili:** 30.08.1984- yil
**Tug`ilgan joyi:** Jizzax viloyati Forish tumani
**Millati:** O`zbek
**Partiyaviyligi:** yo`q
**Ma'lumoti:** o`rta maxsus
**Tamomlagan:** 2003-y Forish MXKX kolleji,
2011-y Do`stlik tuman qishloq xo`jalik kasb-hunar kolleji,
2016-y Politexnika instituti qoshidagi kasb –hunar maktabi
2022-y Mirzacho`l agrosanoat texnikumi
2022-y O`zbekiston davlat san`at va madaniyat instituti

**Ma'lumoti bo`yicha mutaxassisligi:** Huquqshunos iqtisodchi,Boshlang`ich ta`lim, Kutubxonachi,Kutubxonashunoslik,Kutubxona-axborot faoliyati 3 bosqich.
**Ilmiy darajasi:** yo`q
**Ilmiy unvoni:** yo`q
**Qaysi chet tillarini biladi:** yo`q
**Davlat mukofatlari bilan taqdirlanganmi (qanaqa):**
Taqdirlanmagan
**Xalq deputatlari bilan viloyat, shaxar va tuman Kengashi yoki boshqa saylanadigan organlarning a'zosimi (to`li` ko`rsatilishi lozim):**
yo`q

**MEHNAT FAOLIYATI:**

2002-2004 yy – Forish tumani DSENM da nazoratchi
2007-2015 yy – Do`stlik tuman “Guldasta”MTMda kutubxonachi,tarbiyachi
2015-2019 yy – Jizzax viloyati Do`stlik tuman axborot – resurs markazida elektron muxandist

Do`stlik takm muniraraximova

2019.23.12 x/v - Sh.Rashidov nomidagi Jizzax viloyati axborot-kutubxona markazi tasarrufidagi Do`stlik tumani axborot-kutubxona markazida axborot biblografiya xizmati xizmat rahbari.

## Raximova Munira Alimovnaning yaqin qarindoshlari to`g`risida MA'LUMOT

| Qarindosh-ligi | Familiyasi,ismi va otasining ismi | Tug`ilgan yili va joyi | Ish joyi va lavozimi | Turar joyi |
|---|---|---|---|---|
| **Otasi** | Raximov Olim Egamovich | 1960- yil Jizzax viloyati Forish tumani | Tadbirkor | Forish tumani Osmonsoy MFY |
| **Onasi** | Soyaqulova Klara Nosirovna | 1962- yil Jizzax viloyati Forish tumani | Tadbirkor | Forish tumani Osmonsoy MFY |
| **Singlisi** | Suyrova Surayyo Alimovna | 1986- yil Jizzax viloyati Forish tumani | Vafot etgan | |
| **Ukasi** | Raximov Aziz Alimovich | 1989- yil Jizzax viloyati Forish tumani | Bazalt zavodida bosh energetik | Forish tumani Osmonsoy MFY |
| **Singlisi** | Egamova Munisa Alimovna | 1991 -yil Jizzax viloyati Forish tumani | Kutubxonachi | Samarqand viloyati Chelak tumani Olchun qishlog`i |
| **Turmush o`rtog`i** | Xaydarov Abdurashid Axmedovich | 1977- yil Jizzax viloyati Forish tumani | Do`stlik tuman Agrotex servis | Jizzax viloyati Do`stlik tuman Chinobod MFY Nuroniylar 11/11 |
| **Qizi** | Axmedova Nilufar Abdurashid qizi | 2005- yil Jizzax viloyati Forish tumani | Do`stlik tuman 14 – umumta'lim maktabi o`quvchisi | Jizzax viloyati D`stlik tuman Chinobod MFY Nuroniylar 11/11 |
| **O`g`li** | Axmedov Ilxom Abdurashid o`g`li | 2007- yil Jizzax viloyati Forish tumani | Do`stlik tuman 14 – umumta'lim maktabi o`quvchisi | Jizzax viloyati D`stlik tuman Chinobod MFY Nuroniylar 11/11 |
| **Qaynotasi** | Xaydarov Axmad Umirovich | 1941- yil Jizzax viloyati Forish tumani | Vafot etgan | |
| **Qaynonasi** | Yusupova Norbibi Yusupovna | 1951- yil Jizzax viloyati Forish tumani | Vafot etgan | |

Do`stlik takm muniraraximova

**Malaka oshirish va qo`shimcha ta`lim to`g`risidagi hujjatlar nusxalari** (tizim va muassasa nomi, qayta tayyorlash kurslarini tamomlaganligi, o`qitish muddati, shakl va mavzular)



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi

INFOLIB education

Respublika axborot – kutubxona markazi
"Infolib education" o'quv markazi

SERTIFIKAT

Raximova Munira Alimovna

*"Kutubxonashunoslik va bibliografiya"*

*bo'yicha 48 soatlik kursni muvaffaqiyatli tamomlaganligi uchun berildi.*

**Otakuziyev A.E.**
Respublika axborot - kutubxona markazi direktori

**Sattorov B.A.**
"Infolib education" NTM direktori

Litsenziya raqami : NAS UZ 001. MO. 0868-05

13.03.2020 0000594



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

Malaka oshirish haqida

SERTIFIKAT

MO 291687

Rahimova Munira Alimovnamova

2016 yil 1-apreldan 2016 yil 28-aprelgacha
JIZZAX VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTIDA
Jami 144 soatli
MT127 Xalq ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalari axborot resurs markazi (kutubxona) rahbar va xodimlari bo'yicha malakasini oshirdi

Muhr o'rni

Rektor __________ Qodirov G`ayrat O`roqboyevich

Sana 28.04.16 Qayd raqami 1533



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DIPLOM № KX-334

Mazkur diplom egasi Rahimova Munira Alimovna
2015 yili Jizzax Politexnika instituti qoshidagi Kasb-hunar markaziga
o'qishga kirib 2016 yilda mazkur kasb-hunar markazini qayta tayyorlov to'la kursini ARM. Kutubxonachisi
Ixtisosligi bo'yicha ta'momladi.
Davlat imtixon komissiyasining N:94-[illegible] 2.06.2016.
qaroriga binoan Rahimova M. ga
Axborot resurs markazi kutubxona Kutubxonachi malakasi berildi.

Davlat imtixon komissiyasining raisi
MO' Rector
Kotib

Jizzax sh 2016 yil 06.06.

Ro'yxat raqami № 334

THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
DIPLOMA № KX-334

The diploma is sertified Rahimova Munira Alimovna
in 2015. entered the Vocational Educational centre of Jizzakh Polytechnical institute
and in 2016. he (she) finished the full course
in The expert of [illegible]
By the decision of the state committee 2.06.20[illegible]
N:94-[illegible] he (she) is qualified as
TRC specialist

Chairman of the commission
(P.S) Rector
Secretary

Jizzakh city 06.06.2016.
(name of city, date)

Registration № 334

**Ommaviy axborot vositalarida va kasbga oid matbuot nashrlarida chop etilgan maqolalar ro`yxati**.(hujjat nusxalari)

(namuna)https://t.me/mtrkuzofficial/33799

**Do`stlik tumanining "Do`stlik hayoti" gazetasining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida maqolalar bilan chiqishlar.**

https://t.me/dustlikhayoti/5121 Kitob ma`naviyat ko`zgusi xayriya aksiyasi.

https://t.me/dustlikhayoti/5167 Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 538 - yilligi munosabati bilan tanlov bo'lib o'tadi.

https://t.me/dustlikhayoti/5690 "Kitobxonlik haftaligi" yakuniga yetdi.

https://t.me/dustlikhayoti/6589 Qanday qilib muvoffaqiyat qozonish mumkin?

https://t.me/JizzaxMTRK/977

"Infolib Uzbekistan-2020"IX Milliy Axborot-kutubxona haftaligi doirasida o`tkazilgan tadbirda. Jizzax MTRKda.




https://t.me/mtrkuzofficial/33799

Do`stlik tumanida o`tkazilgan "Kitob ma`naviyat ko`zgusi "xayriya aksiyasida.O`zbekiston 24.




**2022-yil 10.07 JMTR "Assalom Jizzax" tongi dasturida.**




**Kasbiy faoliyat natijalari , erishgan yutuqlari:**(na`muna)



Таклиф

# Eshiklar ochiq, lekin...

**Vaqt o‘tgani sayin inson nimalarnidir yo‘qotadi. Bu keyinchalik qaytarib bo‘lmaydigan nimalardir. Ammo o‘sha nimalardir xotiramizning qaysidir qismida saqlanib o‘zimiz bilan qoladi.**

*“Ortda qoldiradigan uchta narsa bor – fotosuratlaringiz, kutubxonangiz va shaxsiy qaydlaringiz. Bularning barchasi, albatta, kelajak avlodlar uchun uyingizda o‘rnatilgan mebeldan ko‘ra muhimroqdir”,* – deydi Jim Ron.

Shunday ekan, keling, endi mavzuga qaytsak. Jumboq tarzida tanlangan bu mavzu meni anchadan buyon yozishga undaydi. Ushbu jumboqli ibora Obiddin Mahmudovning “Farzandnoma” kitobida keltirilgan bo‘lib, quyidagicha bayon qilingan: *“Kitoblarni javoniga terib qo‘ygan, lekin birontasini o‘qimagan kimsaning kim ekanligini bilib olishingiz mumkin. O‘qish – bu taqdirning eng ajoyib sovg‘asi ekanligini unutmang, chunki bu hammaga ham nasib qilavermaydi. Bolalik paytingizda ilk bora qo‘lingizga olgan kitobingizni eslaysizmi? “Alifbe” birinchi hayot kitobidir. Bu siz uchun ochiq turgan birinchi eshikdir. Insoniyat uchun yana bir shunday ochiq eshik borki, u eshik kutubxona eshigidir. Albatta, bu eshikdan kiring! Siz kutubxonadagi son-sanoqsiz kitoblarni qo‘lga olib, varaqlab o‘qib chiqib o‘zingizni baxtli his qilishingiz mumkinligini tushinib yetasiz”.*

Kitob zaminida bir odam borligini unutmasligimiz kerak. Insonning kitobga bo‘lgan mehr-muhabbatidan kelib chiqib hurmat qilaylik. Biz yo‘qotayotgan va boy berayotgan nimalarningdir biri, shu emasmikan?



Munira RAHIMOVA,
“Kutubxona-axborot faoliyati” ta’lim yo‘nalishi sirtqi
2-bosqich talabasi,
Axborot bibliografiya xizmati xizmat rahbari

# Qalam emas, qalb yozgan

**Inson fikrlar ekan, bir narsani boshqasiga solishtiradi. Shu tariqa oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratadi. O‘z fikrlari bilan bir-biriga o‘xshash va takrorlanmas jihatlarni ilg‘ay oladi. Mana shu solishtirish jarayonida, timsolli fikrlash dunyoga keladi. Bu timsollar tavsiflanib, yozuvchi tomonidan mukammal asarga aylanadi. Badiiy so‘zlar saralanib, adabiy meros yaratiladi va bu insoniyatning ma’naviyatiga xizmat qiladi.**

Sizlarni adabiyotimizda yuksak mukofotlarga sazovor bo‘lgan asarlar bilan tanishtirishni lozim topdim. Bu kabi asarlarni o‘qib, insoniyat so‘z san’atini nechog‘lik mukammal egallaganiga tasannolar aytasiz. Mazkur mukofotlangan asarlar inson ko‘nglini faqat o‘zigagina xos nigoh bilan kashf etolgan. Asarlarda so‘z san’ati chinakam badiiylik darajasida bitilgani uchun yuksak e’tirofga sazovor bo‘ldi, deyishimiz mumkin. Dunyo adabiyotida sanoqli asarlargina Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan. Bular: Thokurning “Gitanjali”, roman Rollanning “Jan Kristof”, Rodje Marti dyu Garning “Tibo oilasi” kabilardir. Tompsonning “Yovvoyi hayvonlar hayoti” Elliot mukofoti, “Shimoliy hayvonlar hayoti” Alanga mukofoti bilan taqdirlangan.

O‘zbek adabiyotidagi mukofotlangan asrlar, O‘lmas Umarbekovning “Xatingni kutaman” yilning eng yaxshi hikoyasi, Asqad Muxtorning “Chinor”i yil romani, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asari Abdulla Qodiriy mukofoti, Sharof Boshbekovning “Tushov uzgan tulporlar” asari Respublikalararo g‘olib asar, Halima Xudoyberdiyevaning “Muqaddas ayol” she’ri Respublika davlat mukofoti, G‘afur G‘ulomning “Sharqdan kelayotirman” she’ri Davlat mukofoti, Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romani Janni Rodari tahsiniga sazovor bo‘lgan asarlardir. Biz sizga ushbu asarlaning zavqli mutolaasini tavsiya qilamiz. Kitoblarni esa har doimgidek Axborot-kutubxona markazimizdan olishingiz yoki buyurtma berishingiz mumkin.





O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR AGENTLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O`ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI JIZZAX VILOYATI AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

2019-2024 YILLARDA O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AXBOROT-KUTUBXONA SOHASINI RIVOJLANTIRISH BO`YICHA CHORA TADBIRLAR DASTURIGA MUVOFIQ TASHKIL ETILGAN “AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZINING ENG YAXSHI MUTAXASSISI” KO`RIK TANLOVINING 1 BOSQICHIDA Do'stlik tumani AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI ISHTIROKCHISI Raximova Munira Alimovna

I DARAJALI

# DIPLOM

BILAN
TAQDIRLANADI

VILOYAT AXBOROT-KUTUBXONA
MARKAZI RAHBARI

X.QUDRATOVA

JIZZAX - 2021




**Kitobxonlar bilan individual ishlash,ommaviy tadbirlar tashkil qilish va o`tkazish** (tadbir ssenariylari, ko`rgazmalar, tadbir lavhalari aks etgan rasm va videolar)

(namuna)Do'stlik tuman Axborot-kutubxona markazida 2021-yil 15- fevral sanasida "Yosh kitobxon mahallada" ko'rik tanlovi bo'lib o'tdi.Ushbu tanlovni nizomini ishlab chiqdim va hamkor tashkilotlar bilan tashkil qildim.




Do`stlik takm mu

**Ko`rgazmalar tashkil qilish;**

(namuna)2021-yil 11- fevral sanasida Axborot-kutubxona markazi "Farhod kinoteatri"ga Do`stlik tumaniga viloyat hokimi Ergash Saliyev tashrifi munosabati bilan "Kitobsiz taraqqiyotga,yuksak ma`naviyatga erishib bo`lmaydi " kitob ko`rgazmasini tashkil qildi.



**O`tkazilgan tadbirlar, taqdimotlar (slaydlar,Kompak disklar).**

Har yili tayyorlanadigan muhim va unitilmas sanalarga bag`ishlab tadbirlar va taqdimotlar tayyorlanadi.Mana shunday taqdimotlardan biri M.Yusuf tavalludi munosabati bilan tayyorlangan "Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida" taqdimoti. Tayyorlangan barcha taqdimotlar va tadbir videolari Do`stlik tuman Axborot-kutubxona markazi ijtimoiy tarmoqlarida doimiy ravishda yoritilib boriladi.



**Kitobxonlar klublarini tashkil qilish va to`garaklar dasturlari;**

(na`muna)Do`stlik tuman Axborot kutubxona markazida kitobxonlar klubi 2020-yilda tashkil qilingan bo`lib guruhlar soni 1ta va a`zolari soni 10 nafarni tashkil qilgan.2021-yilda guruhlar soni 2ta va a`zolari soni 35 nafarni tashkil qildi. Do'stlik tuman Axborot-kutubxona markazi kitobxonlar klubi "Yosh ziyokorlar". "Ijod g`unchalari" nomi bilan nomlanib o`z faoliyatini olib bormoqda.

**Shahar,viloyat,umummilliy dasturlar va tanlovlarda ishtirok etish;**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi Sh.Rashidov nomidagi Jizzax viloyati Axborot-kutubxona markazi "Infolib Uzbekistan-2020"IX Milliy Axborot-kutubxona haftaligi doirasida o`tkazilgan "Faol kutubxonachi" ko`rik tanlovida qatnashib II-DARAJALI diplomni qo`lga kiritdi.

Kutubxonachi tomonidan tuzilgan metodik, bibliografik qo`llanmalar na`munalari;

**Kutubxonachi tomonidan tuzilgan metodik, bibliografik qo`llanmalar na`munalari; (alohida kitobcha shaklida ham taqdim qilinadi.)**





Do`stlik tuman axborot-kutubxona markazi.

Axborot bibliografiya xizmat rahbari Munira Raximova tomonidan

“Bolalar va yoshlarni kitobga bo`lgan mehrini, qiziqishini shakllantirish, kitobga bo`lgan e`tiborini oshirish” mavzusida tayyorlagan

USLUBIY TAVSIYANOMASI

Do`stlik sh.

**Xorijiy til bilish sertifikati (nusxasi ko`rsatiladi)**

*Foydalanilgan manbalar: Internet resurslar hamda “Axborot-kutubxona markazining eng yaxshi mutaxassisi” ko`rik tanlovi nizomi .*